

Toshkent Davlat Sharqshunoslik Instituti
Sharq filologiyasi fakulteti
Qiyosiy tilshunoslik, lingvistik tarjimashunoslik
1-kurs hind-ingliz guruhi magistri
To‘rayeva Gulobdon
Ilmiy rahbar:

**Premchandning “Fidoyi” romani tarjimasida somatik frazeologik
birliklarning berilishi**

Bugungi kunda har bir millat o‘z madaniyatini dunyo bo‘ylab yoyilishi va o‘z mavqeyiga ega bo‘lishi uchun faol ishlar olib bormoqda desak mubolag‘a bo‘lmas. Albatta bu harakatlarning bir qismi sifatida adabiyotning keng ko‘lamda yoyilishini ko‘rishimiz mumkin. Buning zamirida nafaqat kitobxon o‘qishi uchun qiziqarli bo‘lgan kitob balki, turli xalqlar madaniyati bilan tanishish, o‘rganish, qolaversa, o‘zi mansub bo‘lgan xalq madaniyati bilan solishtirish imkoni ham paydo bo‘ladi. Tarjimon asar yoki matnni tarjima qilish bilan birga shu asarda bayon etilgan xalq madaniyati, urf-odati, milliy ananalari va hayot tarzini ham o‘quvchi uchun yoritib berishi lozim.

Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning quyidagi so‘zlarini esga olish joiz : “ Uzoq yillar davomida o‘zbek adabiyotini to‘g‘ridan – to‘g‘ri ona tilimizdan tarjima qilib kelgan chet ellik tarjimonlar bilan birga, mamlakatimiz oliy o‘quv yurtlarida ta’lim olayotgan o‘g‘il - qizlarimizni mana shu mashaqqatli, ayni paytda oliyjanob ishga jalb etish, bu masalaning yechimi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan tashkiliy-amaliy vazifalarni hal qilishimiz maqsadga muvofiq bo‘lur edi [1, 139].”

Har bir tilda frazeologik birliklar mavjud bo‘lib, sodda qilib tushuntirganda ular til kalitlaridir. Ya’ni kalitlardan og‘zaki hamda adabiy faoliyatda o‘z fikr- mushohadalarini bayon etishda keng foydalaniladi. Somatik frazeologizmlar ham shu jumladan bo‘lib, tarkibiga somatizmlar, ya’ni tana a’zolari nomlarini bildiruvchi so‘zlar qatnashgan birliklar kiradi. Aynan somatik

frazeologiyada har bir xalqning ko‘p asrlik tajribasi, turmush tarzi, madaniyati, ma’naviyati, urf-odatlari va an’analari o‘z aksini topgan bo‘ladi [2, 11]. Ushbu maqolada Premchandning “सेवासदन” romanini tarjimon Amir Fayzullo tomonidan o‘zbek tiliga o‘girilgan “Fidoyi” romanini tahlil etish jarayonida hindiy tilidagi somatik frazeologik birliklarning o‘zbek tiliga o‘girilishi masalasini ko‘rib chiqamiz.

Asliyat: सुमन इस शीशे के सामने जाकर खड़ी हो गई और उस में अपना रूप नख से शिख तक देखा [3, 32]।

Badiiy tarjima: Suman ana shu toshoyna qarshisiga borib turdi-da, o‘ziga *boshdan-oyoq razm solib qaray boshladi* [4, 38]।.

So‘zma-so‘z tarjima: Suman o‘sha toshoynaning yoniga borib, turib qoldi va unda *o‘zining ko‘rinishini boshdan oyoq ko‘rdi*.

Tarjimon asliyatda nazarda tutilgan ma’no va mazmunni to‘laligicha yetkazib bera olgan deb aytishimiz mumkin. Asliyatdagi रूप नख से शिख तक frazeologik birligi badiiy tarjimada *boshdan-oyoq* deb har jihatdan ekvivalent tarzda o‘girilgan. *Boshdan - oyoq* iborasi to‘la -to‘kis, bus-butun ma’nosini ifodalab keladi [5, 45]. Tarjimaning yana bir boshqa tomoniga e’tibor qaratigan bo‘lsak, gap so‘ngidagi देखना - qaramoq fe’lini *razm solib qaray boshladi* deb o‘girilishi esa gapning ma’no bo‘yoqdorligini yanada oshirib berdi.

Yuqoridagi misolimiz G‘aybullar Salomovning “Tarjima nazariyasiga kirish” kitobida berilgan “Matal, maqol va idiomalarni tarjima qilishda aytib o‘tilgan uch prinsiplardan biri ya’ni asl nushadagi frazeologizmga tarjima tilidan teng qiymatli ekvivalent qidirib topish tarifiga mos keladi deb ayta olamiz. Chunki asliyatdagi har bir so‘z o‘z o‘rnida qoldirilgan, hamda ma’no ham o‘z holida yetkazib berilgan.

Asliyat: मुझे इनके घर को भूलकर भी न आना चाहिए था, मैं ने अपने पांव में आप ही कुल्हाड़ी मारी [3, 41]

Badiiy tarjima: Yanglishib bo'lsa ham bularning dargohiga kelmasligim kerak edi, *o'z oyog'imga o'zim bolta urdim* [4, 48].

So'zma-so'z tarjima: Men ularning uyiga adashib ham kelmasligim kerak edi, *men o'z oyog'imga o'zim bolta urdim*.

Keyingi misolimizda tarjimon asliyatdagi *पांव में आप ही कुल्हाड़ी मारी* iborasi badiiy tarjimada aynan *o'z oyog'imga o'zim bolta urdim* ekvivalentini keltirgan. Somatik frazeologik birlikning leksik tarkibi so'zma-so'z o'girilgan. Mazmun ham to'laligicha saqlanib qolgan bo'lib, shu o'rinda o'zbek va hind xalqlarining har ikkisida ham bir xil ma'no va shakldagi frazeologik birlikning mavjudligi xalqlarning turmush tarzi va ijtimoiy hayotining ko'p jihatdan o'xshash ekanligini tasdiqlaydi.

Asliyat : वह जड़ मूर्ति की भाँति चुपचाप खड़े हो गए और सिर झुका लिया [3, 12]

Badiiy tarjima : U haykaldek bir joyda turib qoldi va *boshini ko'kragiga tashladi* [4, 12].

So'zma-so'z tarjima : U jonsiz haykaldek jim tik turib qoldi va *boshini egib oldi*.

Ushbu holatda esa, tarjimon biroz g'alizlikka yo'l qo'ygan nazarimizda. 1972 yili "Советская энциклопедия" nashriyoti tomonidan nashr etilgan hindiy-rus lug'atida *झुकाना* fe'lining tarjimasi ko'ltirilgan bo'lib unda *सिर झुका लेना* iborasini 1) склонить голову, 2) гнуть, 3) склонять к чему-л kabi bir nechta ma'nolari keltirilgan [6, 636]. Demak, tarjimon bu holatda oddiygina qilib aytganda so'zma-so'z tarjimadan foydalangani maqsadga muvofiq bo'lar edi, shunda tarjima ham aniq, ham to'g'ri chiqar edi. Yuqoridagi badiiy tarjimada esa *सिर झुका लेना* frazeologik birligi *boshini ko'kragiga tashladi* deb o'girilgan bo'lib, ochig'ini aytganda biroz tushunarsiz chiqqan. Undagi ma'noni tushunish qiyin.

Agarda bu jumla gapda foydalanilmay, shunday o‘zini eshitgan taqdirimizda, hayolimizga birinchi navbatda *boshini ko‘ksiga bosdi* yoki *qo‘ydi* kabi ma’noni tushungan bo‘lar edik, ya’ni kimdir boshqa birovni ko‘ksiga boshini qo‘yishini. Bu esa, albatta mutlaqo boshqa holatni kasb etishi turgan gap.

Asliyat: उसके सिर पर एक पहाड़ सा टूट पड़ा [3,17]।

Badiiy tarjima: Bechora er o‘zini *boshiga tog‘ ag‘darilib tushgandek* his qildi [4, 19].

So‘zma-so‘z tarjima: Uning *boshiga bir tog‘ ag‘darilib tushdi*.

Yuqoridagi misolimizda tarjimon asliyatni so‘zma-so‘z o‘girib, gapning mazmunini to‘laligicha saqlab qolgan deb aytishimiz mumkin. Tarjimon gapdagi har bir leksik birlikni asl holida qoldirib, asliyatdagi har bir qo‘llanilgan frazeologik birlikni ham mazmunan ham, shaklan o‘zbek kitobxoni uchun tanish bo‘lgan ko‘rinishda yetkazib bergan.

Bu borada Q. Musayevning quyidagi gaplari fikrimiz tasdig‘i bo‘la oladi: “Agar asliyatda qo‘llanilgan frazeologik birlikda mujassamlashgan obraz hayotiy kuzatishlarga hamda barchaga ma’lum va mashhur tabiat hodisalariga asoslangan, shu bilan birga tarjima tili sohiblariga yaxshi tanish voqea-hodisalar zaminida vujudga kelgan bo‘lsa-yu, ibora tarkibidagi unsurlar orasida mantiqiy bog‘lanish ko‘zga yaqqol tashlanib tursa, bunday frazeologik birliklarning hijjalab qilingan tarjimasi asliyatdagi birlik mazmuniy-uslubini va pragmatik vazifasini qayta yaratadi, o‘zbek tilida hosil qilingan so‘z birikmasi chetdan kiritilganday, til tizimi uchun begonaday tuyulmaydi [7, 201]”.

Asliyat: वह कहा करते थे कि यहाँ हमारा पेट नहीं भरता, हम इनकी भलमनसी को लेकर क्या करें – चाटें [3,5] ?

Badiiy tarjima: “*Qo‘l uchida kunimiz o‘tadi*, uning odamshavandaligini pishirib yeymizmi? [4, 3]”

Soʻzma-soʻz tarjima: Ular aytar edilarki, bu yerda bizning *qornimiz toʻymasa*, biz ularning xayrixohliklarini olib nima qilamiz?

Yuqoridagi misolimizda tarjimon muallif nazarda tutgan mazmunni anglab yetib, asliyatda mavjud boʻlmagan somatik birlikdan foydalanish orqali maʼnoni toʻlaligicha chiqarib bergan. *Qoʻl uchida kun oʻtkazmoq* frazeologik birligi nochorlikda, uchuni-uchiga ulab, bir ammallab hayot kechirmoqni nazarda tutib qoʻllaniladi. Asliyatda bu maʼnoni ifodalovchi *qornimiz toʻymasa* jumlasini bilan berib oʻtilgan boʻlib, nochor, roʻzgʻori but boʻlmagan odamning qorni yaxshi toʻymasligi keltirilgan. Tarjimon oʻquvchining tushunib yetishi oson boʻlishi uchun xalqimizda keng qoʻllaniladigan ushbu iboradan foydalanishi har jihatda toʻgʻri boʻlgan desak adashmagan boʻlamiz. Qolaversa, asliyatdagi *xayrixohlik* soʻzini *odamshavanda* soʻziga oʻzgartirilganligi ham gapni yanada chiroyli, va quloqqa yaqin jaranglashiga olib kelgan.

Asliyat: जब तक उमानाथ वहां रहते, स्त्रियां घरों से न निकलतीं, कोई अपने हाथ से पानी न भरता, कोई खेत में न जाता [3,15]

Badiiy tarjima: To Umonat qishloqni tark etmaguncha xonadonlarning xotin va qizlari bir uyga kirib ketgancha boshqa qorasini koʻrsatmas, hech kim *qoʻlini sovuq suvga urmas*, oʻroq-ketmon koʻtarib dalaga yoʻl olmasdi [4,16].

Soʻzma-soʻz tarjima: To Umanath bu yerda qolguncha, ayollar uylaridan chiqmas, hech kim *oʻz qoʻli bilan suv toʻldirmas*, hech kim dalaga bormasdi.

Ushbu misolimizda muallif oddiy hind ayollarining begona erkakga nisbatan boʻlgan munosabatini ifodalagan boʻlsa, tarjimon ham aynan shu vaziyatni oʻzbek kitobxonini uchun tushunarli qilib oʻgirishga harakat qilgan.

Asliyatdagi *अपने हाथ से पानी न भरता* yaʼni *oʻz qoʻli bilan suv toʻldirmas* jumlasini, tarjimon tomonidan oʻzbek tilida aynan mos keladigan *qoʻlini sovuq suvga urmas* frazeologik birligi bilan tarjima qilishi har jihatdan toʻgʻri boʻlgan. Chunki ushbu frazeologik birlikdan biron “jismoniy qiyinroq mehnatni mutlaqo

qilmaslikni [5, 301] nazarda tutganda foydalaniladi. Demak, tarjimon bu jihatdan adashmagan va mazmunni to‘laligicha saqlab qolgan.

Xulosa o‘rinda aytib o‘tmoq joizki, har bir xalq o‘z tili doirasida, o‘z qobig‘ida mavjud bo‘lgan tushunchalarni anglaydi, ifodalaydi. Bir xalqda aziz yuqori ko‘tarilgan narsa yoki tushuncha ikkinchi xalq uchun odatiy hol bo‘lishi mumkin. “somatik frazeologik birliklar” ham har bir xalqda o‘zgacha shakllangan va o‘zgacha tushunchalarga ega bo‘lishi mumkin.

O‘zbek va hind xalqlarida umumiy va shu bilan birga bir biridan farq qiladigan jihatlar serobdir. Lekin har ikki tilda ham tana a‘zolari bilan bog‘liq frazeologik birliklar keng foydalaniladi. Demak, asarlarda ham shu holatning takrorlanishi odatiydir. Ammo bir tildan ikkinchi tilga ularni tarjima qilish jarayonida qiyinchiliklarning bo‘lishi turgan gap. Chunki bazi hollarda iboraning ma‘nosi yakunlangan, aniq bir mazmunni ifodalab kelsa, boshqa holatda uning ma‘nosi yakuniga yetmagan bo‘lishi ham mumkin. Yuqorida ko‘rib, tahlil qilgan barcha misollarimiz qaysidir ma‘noda yutuq va kamchiliklar bilan tarjima qilingan. Bazilarida aynan ekvivalenti topilgan bo‘lsa, bazilarida muqobil tarjima variant keltirilgan. Birinchi va ikkinchi misolda tarjimon asliyatni aynan ekvivalent variantini topa olgan deya olamiz. Chunki asliyatdagi har bir so‘z o‘z o‘rnida qoldirilgan, hamda ma‘no ham o‘z holida yetkazib berilgan. Uchinchi misolda tarjimon biroz g‘alizlikga yo‘l qo‘yilgan bo‘lsa, to‘rtinchi misol esa, muqobil tarjimaga misol bo‘la oladi. Va nihoyat beshinchi va oltinchi misollarda tarjimon tasviriyl tarjima usulidan foydalangan.

Hindiy tilidagi somatik frazeologik birliklar nafaqat kontekstda ifodalanilayotgan holat yoki vaziyatni, balki hind xalqining madaniyatini, urf – odatlari, turmush tarzi va an‘analarini ham o‘zida mujassam etadi. Uni o‘zbek tiliga o‘girish jarayonida ushbu xususiyatlarni hisobga olgan holda somatik frazeologik birliklardagi asl ma‘noga mos keladigan ekvivalentni topish tarjimondan nafaqat so‘z tanlash mahoratini, balki hind xalqining manaviyatini ham bilishi lozimligini ko‘rsatadi.

Tarjima jarayonida somatik frazeologik birliklar tarkibi soniga emas, balki ma'nosiga ko'proq ahamiyat bergan holda o'girish maqsadga muvofiq bo'lishi aniqlandi. Asliyatdagi bir somatik frazeologik birlik o'rniga tarjima tilida bir necha mos keladigan somatik frazeologik birlik mavjud bo'lganda, tarjimon nafaqat lisoniy birliklarning mos kelishi, balki mazmunning to'la aks etishiga e'tibor berishi kerak.

Fidoyi romanini tahlil jarayonida muqobil variantda tarjima qilingan somatik frazeologik birliklar soni ko'pchilikni tashkil etishi ikki til va xalqlar o'rtasidagi madaniy yaqinlikdan dalolat beradi.

Somatik frazeologik birliklar tarjimada qaysi usul ko'proq samara berishi va tarjimonlarning qaysi bir usuldan ko'proq foydalanishlari har doim ham muhokamali masala bo'lib kelgan. Albatta imkon qadar asliyatdagi shakl va mazmunni tarjimada ham saqlab qolish tarjimon oldiga qo'yilajak eng katta talab, ammo har doim ham buning ilojini topish mushkildir. Mukammal tarjimaga to'sqinlik qiladigan tillar aro grammatik tafovutlar, so'z tanlash mahorati, soxta ekvivalent so'zlar, qolaversa xalqlarning madaniyati, turmush tarzi, tafakkuri, mafkurasi, olamni idrok etishdagi o'xshash bo'lgan tomonlari va farqlari har doim tarjimonlar oyog'idan chalishga harakat qilib kelgan. Ularga chap berish esa, faqatgina tarjimonning kasbiy mahoratiga bog'liqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- [1] Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. - T.: Ma'naviyat, 2008.
- [2] Usmanova Sh.R. O'zbek va turk tillarida somatik frazeologizmlar. Fil.fan nom. dis. – T., 1998.
- [3] मुंशी प्रेमचंद, सेवासदन, ज्ञानदीप प्रकाशन, 2006 वर्ष.
- [4] Premchand. Fidoyi. - T.: O'zbekiston, 2012.
- [5] Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изохли фразеологик луғати. - Т.: Ўқитувчи нашриёти, 1978.
- [6] Хинди-Русский словарь. Том-1., М.: Советская энциклопедия, 1972.
- [7] Мусаев Қ. Таржима назарияси асослари. - Т.: Фан нашриёти, 2005.